



UDK:(329.735(575.1))

Nurmuhammad QARSHIYEV,
O‘zMU: “Siyosatshunoslik” kafedrası dotsenti.
E-mail:nurmuxammad.qarshiev@mail.ru

S.f.d.,professor V.Qo‘chqorov taqrizi asosida

PROBLEMS OF INCREASING THE ROLE OF POLITICAL PARTIES IN THE FORMATION OF STATE ADMINISTRATION

Annotation

The acceleration of the globalization process is increasing the need to improve the functioning of political institutions in society. In particular, the widespread use of modern information technologies in the activities of political parties, which are one of the most powerful institutions of civil society, is giving rise to new forms of their use. In addition to the fact that political parties protect the interests of certain social strata of the population before the authorities, it is relevant to study them as a central political structure in the formation of state governance. We are also witnessing the acceleration of reforms being implemented in our country in recent years, which are improving regulatory and legal mechanisms to expand the participation of political parties and increase their role in shaping public administration.

Key words: Political party, state administration, government, political system, political institutions, democracy, parliament, civil society, electorate.

ПРОБЛЕМЫ ПОВЫШЕНИЯ РОЛИ ПОЛИТИЧЕСКИХ ПАРТИЙ В ФОРМИРОВАНИИ ГОСУДАРСТВЕННОЙ АДМИНИСТРАЦИИ

Аннотация

Ускорение процесса глобализации усиливает потребность в совершенствовании функционирования политических институтов в обществе. В частности, широкое использование современных информационных технологий в деятельности политических партий, являющихся одним из наиболее влиятельных институтов гражданского общества, порождает новые формы их применения. Изучение политических партий как центральной политической структуры в формировании государственного управления, а также как защитников интересов определенных социальных слоев населения перед властями, является актуальным.

Мы также наблюдаем ускорение реформ, проводимых в нашей стране в последние годы, которые совершенствуют нормативно-правовые механизмы для расширения участия политических партий и повышения их роли в формировании государственного управления.

Ключевые слова: Политическая партия, государственное управление, правительство, политическая система, политические институты, демократия, парламент, гражданское общество, электорат.

DAVLAT BOSHQARUVINI SHAKLLANTIRISHDA SIYOSIY PARTIYALARNING ROLINI OSHIRISH MUAMMOLARI

Annotatsiya

Globalashuv jarayonining jadallashuvi jamiyatda siyosiy institutlarning ham faoliyatini takomillashtirish ehtiyojini oshirmoqda. Ayniqsa fuqarolik jamiyatining eng kuchli institutlaridan biri bo‘lgan siyosiy partiyalar faoliyatida zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanishning keng joriy qilinayotganligi ularning yangi shakllarini paydo qilmoqda. Siyosiy partiyalar aholining muayyan ijtimoiy qatlamlari manfaatlarini hokimiyat oldida himoya qilishi bilan bir qatorda uning davlat boshqaruvini shakllantirishdagi markaziy siyosiy tuzilma sifatida tadqiq etish dolzarbdir.

Mamlakatimizda ham so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlarning jadallashuvi unda siyosiy partiyalarning ishtirokini kengaytirish hamda davlat boshqaruvini shakllantirishdagi rolini oshirish bo‘yicha normativ-huquqiy mexanizmlari takomillashtirilib borilayotganligining guvohi bo‘lmoqdamiz.

Kalit so‘zlar: Siyosiy partiya, davlat boshqaruvini, hokimiyat, siyosiy tizim, siyosiy institutlar, demokratiya, parlament, fuqarolik jamiyati, elektorat.

Kirish. Dunyoning rivojlangan ilg‘or tajribalaridan ma‘lumki, davlat boshqaruvini shakllantirishda fuqarolarning ishtirokini ta‘minlash demokratiyaning asosiy shartlaridan biri sifatida qaraladi. Davlat boshqaruvini shakllantirishda aholining ishtiroki demokratiya sharoitida erkin va adolatli saylovlar orqali aniqrog‘i “Saylov mexanizmi” orqali amalga oshiriladi. Mana shunday muhim siyosiy jarayonlarda siyosiy partiyalarning o‘rni qayerda bo‘ladi degan tabiiy savol tug‘iladi. Siyosiy partiyalar davlat boshqaruvini shakllantirishning subyekti sifatida, yuqorida tuxtalib o‘tganimiz saylov

jarayonida ishtirok etuvchi ta‘bir joiz bo‘lsa, uni amalga oshiruvchi markaziy siyosiy institutdir.

O‘zbekistonda ham siyosiy partiyalarning fuqarolik jamiyatining instituti sifatida jamiyatda erkin faoliyat yuritishlari uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan. Ayniqsa, davlat boshqaruvini shakllantirishdagi ishtiroki masalalariga alohida e‘tibor qaratilganligini saylovlarda ishtirok etish huquqi faqatgina siyosiy partiyalar orqali amalga oshirilishi huquqiy tomondan mustahkamlab qo‘yilganligi bilan izohlashimiz mumkin. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi “Saylov

Kodeksi"ning 37-moddasiga ko'ra, "O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod, Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzod, mahalliy Kengashlar deputatligiga nomzod ko'rsatish huquqiga siyosiy partiyalar egadir"[1] deb belgilab qo'yilgan.

Hozirgi kunda mamlakatimizda mavjud siyosiy partiyalarning davlat boshqaruvini shakllantirish, jamiyat taraqqiyotida ishtirokini munosib ishtirokini ta'minlash nuqtai nazaridan barcha tashkiliy, institutsional imkoniyatlar yaratib berilgan. Siyosiy partiyalar faoliyatiga 2017-yil 12-iyulda bo'lib o'tgan Oliy Majlis palatalari, siyosiy partiyalar hamda O'zbekiston Ekologik harakati vakillari bilan bo'lib o'tgan uchrashuvda Prezident Sh.Mirziyoyevning "Parlamentimiz haqiqiy demokratiya maktabiga aylanishi, islohotlarning tashabbuskori va ijrochisi bo'lishi kerak" deb nomlangan ma'ruzasida "Har qanday siyosiy partiya zamon bilan hamnafas bo'lib, uning o'tkir talablariga javob bergan taqdirdagina siyosiy kuch sifatida yashay oladi" degan fikrni bildirgan edilar[2].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Jahon ilm fanida siyosiy partiyalarning davlat boshqaruvini shakllantirishdagi rolini oshirish muammolarini ko'plab siyosatshunos olimlar o'rganishgan. Mazkur yo'nalishda tatqiqot olib borgan olimlarni uch guruhga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiqdir. Birinchi g'arb olimlari guruhiga N.Makiavelli, M.Dyuverje, M.Veber, J.Sartori, T.Parsons, T.Gobss, K.Janda, J.Brays, R.Dal, S.Xantington, D.Yum kabilarni, rus olimlari guruhiga M.Ostrogorskiy, S.Lansov, B.Isayev, V.Malsev, V.Pugachev, A.Solovyev kabilarni, o'zbek olimlari guruhiga M.Qirg'izboyev, I.Ergashev, Q.Nazarov, B.Yakubov, V.Quchqorov, X.Axmedovlarni kiritishimiz mumkin.

Eng avvalo davlat tushunchasi va uning mohiyatiga qisqacha siyosatshunos olimlarning yondashuvlariga to'xtalib o'tsak, V.Pugachyov, A.Solovyovga ko'ra, "davlat tor ma'noda ma'lum hududda oliy hokimiyatga ega bo'lgan muassasalar tizimi, tashkilot sifatida tushuniladi. U boshqa siyosiy tashkilotlar: partiyalar, kasaba uyushmalari va boshqalar bilan birga mavjud bo'ladi"[3]. Demokratiya sharoitida davlat institutining mavjudligi yoki shakllanishi fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari vositasida yoki ta'sirida amalga oshiriladi. Ma'lum ma'noda davlat boshqaruvini amalga oshirishda mazkur siyosiy institutlar muhim ahamiyat kasb etadi.

1996-yil 26-dekabrda qabul qilingan "Siyosiy partiyalar to'g'risidagi" O'zbekiston Respublikasi Qonunining 12-moddasi Siyosiy partiyalar huquqlariga bag'ishlangan bo'lib, unga ko'ra;

o'z faoliyati to'g'risidagi axborotni erkin tarqatish, o'z g'oyalari, maqsadlari va qarorlarini targ'ib qilish;

saylab qo'yiladigan davlat organlaridagi o'z vakillari orqali tegishli qarorlarni tayyorlashda ishtirok etish;

qonunda belgilab qo'yilgan tartibda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, davlat hokimiyati organlari saylovlarida ishtirok etish;

partiya faoliyati bilan bog'liq yig'ilishlar, konferensiyalar va boshqa tadbirlarni o'tkazish;

qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda ommaviy axborot vositalari ta'sis etish va boshqa ommaviy axborot vositalaridan foydalanish;

O'zbekiston Respublikasining siyosiy partiyalari bilan ittifoq (blok) tuzish, ular bilan va boshqa jamoat birlashmalari bilan shartnoma munosabatlari o'rnatish[4]. Mazkur qonunda siyosiy partiyalarning davlat boshqaruvining asosiy subyektlari bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va davlat hokimiyati organlari saylovlarida ishtirok etishi belgilab qo'yilganligi uni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etishidan dalolatdir.

O'zbek olimlaridan B.Yakubovga ko'ra, ijtimoiy fanlarda siyosiy partiyalarni o'rganish, har tomonlama tadqiq qilishga qiziqish tobora ortib bormoqda. Bu, avvalo, turli jamiyatlarda o'zaro raqobatga asoslangan plyuralistik partiyaviy tizimlarning qaror topishi, siyosiy partiyalarning davlat boshqaruvini tashkil qilish va amalga oshirish mexanizmidagi muhim elementlardan biriga aylanayotganligi bilan bevosita bog'liq [5].

Taniqli o'zbek siyosatshunos olimi M.Qirg'izboyevga ko'ra, siyosiy partiya bu – rasmiy institutlashgan va funksional jihatlardan davlat hokimiyati organlarini shakllantirish va parlamentdagi o'z fraksiyalari vositasida ular ustidan nazorat qilish uchun ixtisoslashgan tashkilotdir [6]. Umuman olganda siyosiy partiyalarning yur qancha funksiyalari mavjud bo'lib bularga, vakillik funksiyasi, elektoral funksiya, ijtimoiy integratsiyalashuv funksiyasi, davlat boshqaruviga kadrlar tayyorlash funksiyasi, hokimiyatni legitimlashtirish funksiyasi v.x.k. Ana shunday funksiyalardan eng asosiyilaridan biri sifatida siyosiy partiyalarning davlat boshqaruvini shakllantirish funksiyasini keltirib o'tishimiz mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotimizda tizimlirtarkibiy, funksional, institutsional, obyektivlik hamda kompleks yondashuv metodologiyalaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Davlat boshqaruvini shakllantirishda siyosiy partiyalarning rolini oshirish - demokratik tizimni mustahkamlashning muhim sharti hisoblanadi.

Umuman xalqaro normativ – huquqiy hujjatlarda ham fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtiroki masalalariga alohida urg'u beriladi. Xususan, BMT Bosh Assambleyasining 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan "Inson huquqlarining umumjahon Deklaratsiyasi"ning 21-moddasida demokratik prinsiplar asosidagi saylovlarining inson huquqlari bilan bog'liqligi quyidagicha keltirib o'tiladi: "Har bir inson bevosita yoki erkin saylangan vakillari orqali o'z mamlakati boshqaruv ishida qatnashish huquqiga egadir. Xalq irodasi hukumat hokimiyatining asosi bo'lishi kerak; bu iroda yashirin ovoz berish yoki ovoz berish erkinligini ta'minlovchi boshqa shunga teng ahamiyatga ega bo'lgan umumiy va teng saylov huquqi asosida ifodalanishi lozim"[7]. Fuqarolarning boshqaruvdagi ishtiroki aksariyat davlatlarda vakillik demokratiyasi orqali amalga oshiriladi. Shuni ham alohida ta'kidlab o'tishimiz kerak-ki vakillarni saylash mexanizmining markazida siyosiy partiya instituti asosiy rolni bajaradi.

O'zbekistonda bu masala institutsional islohotlar bilan bevosita bog'liq. Davlat boshqaruvini shakllantirishda siyosiy partiyalarni rolini oshirishda institutsional muammolar sifatida quyidagilarni keltirib o'tishimiz mumkin, siyosiy partiyalarning qonun ijodkorligida tashabbuskorligi darajasi bilan bog'liq muammolar; siyosiy partiyalarning davlat organlari bilan amaliy hamkorlik mexanizmlarining yetarli emasligi; siyosiy partiyalarning ijro hokimiyati shakllanishida ta'sir doirasining sustligi v.x.k. Shuningdek, siyosiy partiyalar o'rtasidagi o'zaro siyosiy raqobatni kuchaytirishga bo'lgan ehtiyoj mavjudligi; siyosiy partiyalar o'rtasidagi mafkuraviy raqobatni yanada oshirish zarurati; saylov jarayonlarida siyosiy faollikni yanada oshirish; fuqarolik jamiyati bilan aloqalarni kuchaytirish zarurati; NNTlar bilan tizimli hamkorlikning yetishmasligi; jamoatchilik fikrini shakllantirishda siyosiy partiyalarning faolligining sustligi; siyosiy madaniyat va siyosiy ong darajasini yanada oshirishda siyosiy partiyalarning ishtiroki yetarlicha emasligi; kadrlar va resurs muammolari mavjudligi; malakali siyosiy kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirishga bo'lgan ehtiyojning mavjudligi; moliyaviy mustaqillikni oshirishga bo'lgan ehtiyojning mavjudligi; aholida siyosiy partiyalarga nisbatan ishonch darajasini oshirishga bo'lgan ehtiyojning mavjudligi; siyosiy

partiyalarning jamoatchilik oldida hisobdorligi mexanizmini kuchaytirish zarurati kabilarni keltirib o'tishimiz mumkin.

Bugungi kunda mamlakatimizda davlat boshqaruvini shakllantirishda ishtirok etib kelayotgan siyosiy partiyalar soni 5 tani tashkil etadi. Ular quyidagilar, O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi (1991-yil), O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi (1995-yil), O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi (1995-yil), Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston Liberaldemokratik partiyasi (2003-yil), O'zbekiston ekologik partiyasi (2019-yil) faoliyat yuritmoqda. Yuqorida keltirilgan siyosiy partiyalar jamiyat hayotini

2009-yil 27-dekabr va 2010-yil 10-yanvardagi saylovlardan so'ng (jami 150 deputat)	2014-yil 21-dekabr va 2015-yil yanvardagi saylovlardan so'ng (jami 150 deputat)	2019-yildagi saylovlardan so'ng (jami 150 deputat)	2024-yil 27-oktabrdagi saylovlardan so'ng (jami 150 deputat)
O'zLiDeP – 53 deputat; XDP – 32 deputat; "Milliy tiklanish" DP – 31 deputat; "Adolat" SDP – 19 deputat; O'zbekiston Ekologik harakati – 15 deputat	O'zLiDeP – 52 deputat; "Milliy tiklanish" DP – 36 deputat; O'z. XDP – 27 deputat; "Adolat" SDP – 20 deputat; O'zbekiston Ekologik harakati – 15 deputat	O'zLiDeP - 53 nafar; "Milliy tiklanish" DP - 36 ta; "Adolat" SDP - 24 ta; XDP - 22 ta; Ekologiya partiyasidan - 15 ta deputat.	O'zLiDeP - 64 nafar; "Milliy tiklanish" DP - 29 ta; "Adolat" SDP - 21 ta; XDP - 20 ta; Ekologiya partiyasidan - 16 ta deputat.

1-Jadval. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga bo'lib o'tgan bir nechta saylovlarning qiyosiy tahlili.

Siyosiy partiyalarning davlat boshqaruvini shakllantirishdagi ishtiroki O'zbekiston Respublikasi Prezidentligi saylovlari bilan bir qatorda Oliy Majlis va mahalliy kengashlarga saylovlarda namayon bo'ladi. Xususan, yuqoridagi jadvalda siyosiy partiyalarning turli yillarda bo'lib o'tgan saylovlarda Oliy Majlis Qonunchilik palatasida egallagan deputatlik o'rinlari keltirib o'tilgan.

Umuman olganda shuni aytishimiz mumkinki siyosiy partiyalarning davlat boshqaruvini shakllantirishdagi rolini oshirish muammolari nafaqat bizning mamlakatimiz uchun balki dunyoning rivojlangan mamlakatlari tajribasida ham bugungi kunda dolzarbdir. Shuningdek, turli mamlakatlarda mazkur muammolar turlicha tabiati va xususiyatlari bilan namayon bo'ladi. Yuqorida sanab o'tilgan muammolarni bartaraf etish uchun partiyalarning dasturiy va mafkuraviy aniqligini kuchaytirish, parlament nazorati mexanizmlarini takomillashtirish, partiyalararo sog'lom raqobatni ta'minlash, siyosiy madaniyat va elektoral faollikni oshirish zarur. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalardan foydalanish orqali aholi bilan ochiq va shaffof muloqotni kengaytirish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa va takliflar. Siyosiy partiyalar davlat boshqaruvini shakllantirishda hal qiluvchi siyosiy institut

demokratlashtirishda muhim ahamiyat kasb etib, o'z elektorati manfaatlarini ruyobga chiqarishda ularning boshqaruvdagi ishtirokini demokratik saylovlar orqali amalga oshirishga harakat qilib kelmoqda. Shuningdek, hokimiyat uchun kurashda o'z saylovoldi dasturlarini ilgari surib, muayyan ijobiy natijalarni qayd etib kelmoqda.

Biz yuqorida keltirib o'tgan siyosiy partiyalarning elektorati oldida hisobdorligini va mas'uliyatini oshirish muammosiga e'tibor qaratish ularning jamiyatdagi nufuzini oshishiga shu orqali saylovlarda muhim bo'lgan g'alabalarni qo'lga kiritishida asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Shu jihatdan ularning rolini oshirish demokratik taraqqiyotning muhim sharti hisoblanadi.

Partiyalarning davlat boshqaruvini shakllantirishdagi rolini oshirish -bu nafaqat institutsional islohotlar, balki siyosiy madaniyat, faol fuqarolik pozitsiyasi va ochiq boshqaruv tamoyillarini rivojlantirish bilan uzviy bog'liq jarayondir. Bu jarayon izchil va tizimli yondashuvni talab qiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib qo'yidagi takliflarni ilgari surishimiz mumkin:

Partiyalarning parlament nazorati funksiyasini kuchaytirish;

Siyosiy partiyalar o'rtasidagi o'zaro raqobat muhitini kengaytirish;

Siyosiy ta'lim va kadr tayyorlash tizimini kuchaytirish;

Ommaviy axborot vositalari bilan siyosiy partiyalar o'rtasidagi ochiq muloqotni yanada rivojlantirish.

ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикаси "Сайлов Кодекси" 25.06.2019. <https://www.lex.uz/acts/4386848>
2. "Сийёсий партиялар тўғрисида"ги Ўзбекистон Республикаси Қонуни. 337-І-сон, 1996 йил 26-декабрь. <https://lex.uz/acts/54191>
3. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб янги босқичга қўтарамиз. "Ўзбекистон" НМИУ. 2017. 548-бет.
4. Bo'tayev U.X. Siyosatshunoslik [Matn]: darslik / U.X. Bo'tayev –Toshkent: Info Capital Books, 2024. -480 bet.
5. Қирғизбоев М. Сийёсатшunosлик: олий ўқув юртлари талабалари учун ўқув қўлланма / М.Қирғизбоев; Андижон давлат университети. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2013. – 524 б.
6. Пугачёв В.П., Соловьёв А.И. Сийёсатшunosликка кириш. Ўқув қўлланма – Т.: Янги аср авлоди, 2004. 257-б.
7. Инсон ҳуқуқларининг умумжаҳон Декларацияси. – Т., 1998. – Б.30.